



QASHQADARYO VILOYATIDA GO'SHT-SUT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQUARISHDA XORIJIY TAJRIBA VA UNDA HUDUDLARDA SAMARALI FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Abdullayev Jasur

Qarshi davlat texnika universiteti

ORCID: 0009-0001-0005-9809

jasurabdullaev1311@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sut-go'sht mahsulotlari ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar va uning samaradorligini oshirish yo'llari tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasida va shu jumladan, Qashqadaryo viloyati xo'jalik yurituvchi dehqon va fermer xo'jaliklarda sut-go'sht mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasi va aholini chorvachilik mahsulotlari bilan ta'minlash yo'nalishlari ochib berilgan

Kalit so'zlar: qayta ishlash, innovatsion rivojlanish, innovatsion yondashuv, qishloq xo'jaligi, sut, go'sht, mahsulotlar, ishlab chiqarish, samaradorlik, yem-xashak bazasi, chorvachilik.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ В ПРОИЗВОДСТВЕ МЯСО-МОЛОЧНОЙ ПРОДУКЦИИ В КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В РЕГИОНАХ

Абдуллаев Джасур

Каршинский государственный технический университет

Аннотация. В статье анализируются факторы, влияющие на экономическую эффективность производства молочной и мясной продукции, и пути повышения ее эффективности. Раскрываются уровень обеспеченности фермеров и скотоводов Республики Узбекистан, в том числе Кашкадарьинской области, молочной и мясной продукцией, а также направления обеспечения населения продуктами животноводства.

Ключевые слова: переработка, инновационное развитие, инновационный подход, сельское хозяйство, молоко, мясо, молочные продукты, развитие, эффективность, кормовая база, животноводство.

FOREIGN EXPERIENCE IN MEAT AND DAIRY PRODUCTION IN KASHKADARYA REGION AND OPPORTUNITIES FOR ITS EFFECTIVE APPLICATION IN THE REGIONS

Abdullayev Jasur

Karshi State Technical University

Abstract. The article analyzes the factors influencing the economic efficiency of dairy and meat production and ways to improve its efficiency. The level of provision of farmers and cattle breeders of the Republic of Uzbekistan, including the Kashkadarya region, with dairy and meat products, as well as the directions of providing the population with livestock products are disclosed.

Keywords: processing, innovative development, innovative approach, agriculture, milk, meat, products, development, efficiency, feed base, livestock.

Kirish.

Respublikamizda Yangi O'zbekiston qishloq xo'jaligi dehqonchiligini innovatsion asosda jadal rivojlantirini taminlashda "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da belgilab berilgan "qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida ikki barobar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5% ga yetkazish"[1] vazifani ijrosini taminlashda qishloq xo'jaligi dehqonchiligini innovatsion asosda rivojlantirishda milliy dehqonchilik innavatsion tizimini, shuningdek innovatsion klasterlarni shakllantirish, hududlar xususiyatini hisobga olib, sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hamda innovatsion asosda taraqqiyotining konseptual yo'nalishlarini belgilab olish kabi muammolarni hal qilish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishni taqazo etmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Bugungi kunda go'sht va sut mahsulotlarini yetishtirish samaradorligini oshirishda yangi innovatsiyalardan samarali foydalanish va rivojlantirish masalasi mamlakatimiz va xorij agroiqtsodchi olimlari tomonidan atroflicha o'rganilgan. Xususan, mamlakatimiz olimlaridan Bazarov (2001), Isanov (1981), Mallaboyev (1984), Mexmanov (2002) lar tomonidan bajarilgan ilmiy-tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalari sohada sut-go'sht mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish hamda tarmoq samaradorligini oshirishda muhim nazariy va uslubiy qo'llanma sifatida xizmat qilyapti.

Xorijiy olimlardan chorvachilik va hayvonlar mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni e'lon qiladi. Unda go'sht va sut ishlab chiqarish texnologiyalari, ozuqa strategiyalari, mol go'shti va qo'ylarning biologik ko'rsatkichlari kabi masalalar yoritiladi (Ruziyeva, Xaydarova, 2024).

Ushbu tahliliy maqolada respublika chorvachilik sektorining hozirgi holati, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari va texnologik yangiliklar o'rganilgan. Adabiyotda zamonaviy raqamli texnologiyalarni tatbiq etish, ishlab chiqarishni optimallashtirish va statistik ko'rsatkichlar orqali samaradorlikni oshirish yo'nalishlari qayd etilgan (Ryadchikov, 2022).

Ilmiy ishlarida iqlim o'zgarishining chorvachilik mahsulotlariga, ayniqsa sut va go'sht ishlab chiqarishga ta'sirini o'rganadi. U moslashuv va mitigatsiya strategiyalarini ham ko'rib chiqadi, ya'ni xorijiy hududlarda samarali chorvachilikda barqarorlikni oshirish yo'llari (Hakan Serin va boshqalar, 2025).

Lekin, ushbu ilmiy-tadqiqot ishlarida samaradorlik alohida go'sht va sut tarmog'i bilan bog'langan holda to'liq o'rganilmagan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida go'sht va sut ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish yangi usullardan to'liq foydalanmaslik mukammal faoliyatisiz to'liq bo'lmaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mintaqada chorvachilik sohasini rivojlantirishda qishloq xo'jaligida investitsiya samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarning o'ziga xos bo'lgan asosiy xususiyatlarini asoslab berish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish doir tahlilida induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil etish, jadval va grafiklar usullaridan foydalanildi va taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan sanaladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Viloyatda asosan mayda dehqon va fermer xo'jaliklari tomonidan qoramolchilik, qo'ychilik va echkichilik bilan shug'ullaniladi. So'nggi yillarda ishlab chiqarish hajmi oshib borayotgan bo'lsa-da, quyidagi muammolar mavjud. Chorvachilik sohasidagi mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini va undagi o'zgarishlarni infratuzilma xizmatlari ko'rsatishni hisobga olgan holda tadqiq qilish borasida ko'plab yondashuvlar amalga oshirilmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, «2050-yilga borib, jahon aholisi 9.1 mlrd. kishiga yetishi mumkin. Bunda jahon aholisining

go'sht va sut-gusht mahsulotlariga bo'lgan talabi hozirgi kunga nisbatan 2,5-3,0 barobarga ortishi kutilmoqda». Bu esa o'z navbatida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga bo'lgan talabni kuchaytiradi.

Gusht-sut mahsulotlari ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishni takomillashtirish, o'rtacha ko'rsatkichlar orqali kompleks tahlil qilish yuzasidan qator ilmiy izlanishlar, jumladan, tizimli yondashuvni takomillashtirish hisobiga chorvachilik sohasini intensiv rivojlantirishni baholash, gusht-sut mahsulotlarining hajmini va sifatini hamda raqobatbardoshligini ko'p omilli tahlil qilish bo'yicha keng ko'lamli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Hozirgi kunda jahon gusht-sut mahsulotlari ishlab chiqish va unda tizimli iqtisodiy-statistik tahlil usullarini qo'llash, gusht-sut mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni baholashda va prognozlarini ishlab chiqish ustuvor ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Gusht-sut mahsulotlarini yetishtirishdagi mavqei yildan-yilga oshib bormoqda. Shu bilan birga, chorvachilik tarmog'ida jamoa chorvachilik fermalari, hissadorlik jamiyatlari va xususiy chorvachilik fermalari, shirkat xo'jaliklari ham faoliyat yuritishmoqda. Shirkat xo'jaliklari asosan bugungi kunda faqatgina qorako'lchilik sohasida saqlanib turibdi.

Tarkibiy o'zgarishlar eng avvalo yalpi ichki mahsulot tarkibida qishloq xo'jaligi tarmog'i salmog'i kamayib borishida kuzatiladi. Jumladan respublika bo'yicha yalpi ichki mahsulot tarkibida qishloq xo'jaligi tarmog'i salmog'i so'nggi 5 yil davomida 26,6 foizdan 19,4 foizga kamayganligini kuzatish mumkin. Shunday holat Qashqadaryo viloyatida ham yuz bermoqda, ya'ni viloyat hududiy ichki mahsuloti (HIM) tarkibida qishloq xo'jaligi salmog'i respublika ko'rsatkichiga qaraganda bir qadar yuqori bo'lsada, muttasil kamayib borish yo'nalishidagi o'zgarish yuz berayotganligini iqtisodiy qonuniyat sifatida qabul qilish lozim. Bu vaziyat mamlakat va shuningdek viloyat iqtisodiyoti rivojlanishining qishloq xo'jaligi tarmog'iga bog'liqligi darajasi kamayib borishidan dalolat bermoqda.

Viloyatda qoramolchilik naslchilik xo'jaliklarida bir bosh sigirdan 2020-yilda o'rtacha 1860 litr sut sog'ib olingan bo'lsa, 2024-yilga kelib 2210 litrga oshgan bo'lsada, mahsuldorlik darajasi nihoyatda past va naslchilik tofasiga xos bo'lmagan xolat kuzatiladi.

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, mamlakatimiz aholisining sut va sut mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish, asosan xususiy tarmoq vakillari hisoblangan dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish tadbirlariga bevosita bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida chorva mollari mahsuldorligini oshirish, mustahkam ozuqa bazasini yaratish, xizmat ko'rsatishni sifat jihatdan yaxshilash va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni keng yo'lga qo'yish orqali har shartli chorva moli va har 100 gektar qishloq xo'jaligi yer maydoni hisobiga mahsulot ishlab chiqarish va daromad olish miqdorini oshirishni taqozo qiladi.

Respublikada har bir sigirdan o'rtacha sog'iladigan sutni 8000 kilogrammga yetkazilsa, bosh sonini oshirmasdan turib ham sut-gushtga bo'lgan aholining me'yoriy talabni qondirish mumkin bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida gusht va sut mahsulotlari importini kamaytirish imkonini beradi. Ayni paytda sigirlarning 8000 kilogrammik sut mahsuldorligi respublikamizda real imkoniyat hisoblanadi.

Chorvachilik yo'nalishidagi fermer xo'jaliklarining samaradorlik ko'rsatkichlari yildan-yilga yaxshilanib borayotgan bo'lsada, go'sht va sut yetishtirishda hajm ko'rsatkichlariga erishish mol bosh sonini ko'paytirish emas, balki mahsuldorlik darajasini oshirish hisobiga amalga oshirilishi lozim. Bu boradagi raqamlar viloyat bo'yicha sigirlar sut mahsuldorligi juda pastligini ko'rsatmoqda.

Masalan, viloyat bo'yicha 2020-yilda bir sigirdan barcha toifadagi xo'jaliklarda 2436 kilogrammdan sut sog'ib olingan bo'lsa, bu ko'rsatkich fermer xo'jaliklarida atigi 2514 kilogrammni tashkil etgan, bu o'rtacha bir sigirdan kuniga 5 litrdan sut sog'ib olingan degani. Taqqaslash o'rnida yaxshi mahalliy echki zotlari kuniga 7-8 litr sut berishini keltirib o'tish joiz. Dehqon xo'jaliklari ko'rsatkichlari bir qadar yuqori bo'lsada, respublikamizdagi mavjud sharoitlarda (qoramollar zoti, yem-hashak ta'minoti, to'plangan tajribalar, mutaxassislar

malakasi va tarmoq doriyasidagi intellektual salohiyat) olinishi mumkin bo'lgan sut mahsuldorligidan eng kamida 2-2,5-marta pastroqni tashkil etadi.

Chorva mollari mahsuldorligi pastligi asosan chorva mollarining aksariyati mahalliy past mahsuldor zotlar ekanligi bilan izohlanadi. Shu boisdan ham naslli chorva mollar genofondini kengaytirish va yangi sermahsul zotlarni takomillashtirishda naslchilik xo'jaliklari alohida o'rin tutadi. Ammo, yaqin tarixda qoramolchilik fermalarini xususiyashtirish davrida naslchilik zavodlari, xo'jaliklari va naslchilik fermalari xususiy tarmoqqa o'tib ketdi va keyinchalik ularni ushlab turish qiyinligi tufayli xususiy mulkdorlar tomonidan sotib yuborildi.

Bugungi kunga kelib Qashqadaryo viloyatida 16 ta qoramolchilik yo'nalishida naslchilik toifasidagi xo'jaliklari faoliyat olib borayotgan bo'lib, ushbu xo'jaliklarda ham sigirlar sut mahsuldorli juda pastligicha qolmoqda.

Viloyatda qoramolchilik naslchilik xo'jaliklarida bir bosh sigirdan 2020-yilda o'rtacha 1860 litr sut sog'ib olingan bo'lsa, 2024-yilga kelib 2210 litrga oshgan bo'lsada, mahsuldorlik darajasi nihoyatda past va naslchilik tofasiga xos bo'lmagan xolat kuzatiladi.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, mamlakatimiz aholisining sut va sut mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish, asosan xususiy tarmoq vakillari hisoblangan dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish tadbirlariga bevosita bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida chorva mollari mahsuldorligini oshirish, mustahkam ozuqa bazasini yaratish, xizmat ko'rsatishni sifat jihatdan yaxshilash va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni keng yo'lga qo'yish orqali har shartli chorva moli va har 100 gektar qishloq xo'jaligi yer maydoni hisobiga mahsulot ishlab chiqarish va daromad olish miqdorini oshirishni taqozo qiladi.

Ma'lumki, chorcachilik xo'jaliklarida mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri -ozuqa bazasini mustahkamlash hisoblanadi. Lekin, fermer xo'jaliklarida yem-xashak ekinlari salmog'i keskin kamaymoqda.

Xozirgi kunda Qashqadaryo viloyatining ayrim fermer xo'jaliklarida ozuqabop ekin maydonlarining har gektaridan 10-12 tonnadan ozuqa birligi miqdoridagi yem-hashak yig'ishtirib olishmoqda. Bunda quyidagi tarkibda ozuqa ekinlarini joylashtirimoqda: oktabr oyida oraliq ekinlar (arpa-suli-tretikale-no'xat-aralashmasi) ekib, may oyining 2 o'n kunligida gektaridan 300-350 sentnerdan donli senaj, 1-iyunga qadar oraliq ekin o'rniga silos uchun makkajo'xori ekib, 300 sentnerdan hosil olmoqda. Gektaridan ikki marotaba yig'ib olingan hosil 15-16 tonnaga yetadi va bunday tajribalarni kengaytirish lozim.

Chorcachilikda mahsuldorlik darajasini oshirishdagi asosiy omillardan biri sifatida tarmoqda mustahkam ozuqa bazasini yaratish lozim. Bunda bizning nazarimizda quyidagi muammolarga yechim topish kerak. Jumladan:

Sut-gusht yo'nalishidagi chorcachilikni rivojlantirishda dehqon va fermer xo'jaliklarini naslli chorva mollari va moddiy-texnika vositalar bilan ta'minlash masalasiga alohida e'tibor berish lozim.

Sohadagi muammolar yem-hashak yetishmasligi, ozuqabop ekinlar maydonlari chegaralanganligi, qishloq xo'jalik texnikalari shu jumladan, chorcachilik uchun mini tarkitorlar va texnologik uskunalar yetishmasligi bilan ham izohlanadi.

Tahlillar ko'rsatishicha, hozirgi paytda sut-gusht mahsulotining sezilarli qismi iste'molchilarga yetib bormasdan buzilib qolishi, qayta ishlash jarayonida va saqlash tizimidagi texnik va texnologik, tashkiliy va iqtisodiy nomutanosibliklar sababli ro'y bermoqda.

Bugungi kunda sut-gusht bozorini rivojlantirish oldida turgan yaqin kelajakdagi masala bu ichki bozor to'kinligini ta'min etish bo'lib, asosiy e'tibor iste'molchilarni importning o'rnini bosadigan mahsulotlar bilan ta'minlashga qaratilishi lozim.

Mamlakat aholisining sut va go'sht mahsulotlari bilan tibbiy me'yorlar darajasida ta'minlanishi birinchi navbatda chorva hayvonlarining bosh sonini mavjud yem-hashak

yetishtirish imkoniyatlari darajasida barqarorlashtirish va ularning mahsuldorligini oshirishni talab etadi.

Adabiyotlar / Адабиятлар / Reference:

Bazarov N.C. (2001) *Qoramolchilik xo'jaliklarida mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va uning samaradorligini oshirish yo'llari (Namangan viloyati chorvachilik xo'jaliklari misolida)*. Iqt. fan. nom. dis. – T., – 126 b.

Hakan Serin va boshqalar (2025) *Bibliometric Analysis on Sustainability in Dairy Farming*. *Vet Sci Pract.*; 20(1): 40-49. doi: 10.17094/vetsci.1644630.

Isanov U. (1981) *Ekonomicheskaya effektivnost razvitiya jivotnovodstva i puti povisheniya (Na primere Tash. obl.): dis. kand. ekon. nauk. – T.*

Mallabayev T.S. (1984) *Ekonomicheskiye problemi intensivifikatsii skotovodstva: dis. d-ra ekon. nauk. – T., – 364 s.*

Mexmanov S.U. (2002) *Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tarmoqli istiqbolli rivojlanish asosida aholini chorvachilik mahsulotlari bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish (Toshkent viloyati misolida)*. Iqt. fan. dok. ... dis. – T.

Ruziyeva D., Xaydarova S. (2024) *Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish holati tahlili. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnal*. mart.112-120 b.

Ryadchikov V.G. (2022) *Qishloq xo'jalik hayvonlarini oziqlantirish asoslari*. https://mtprofi.uz/poleznyye-materialy/article_post/qishloq-xojalik-hayvonlarini-oziqlantirish-oziqalar-toyimligi-va-oziqalarning-kimyoviy-tarkibi-13-ta-malumat.